Ona tili

II qism

1



novda

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

D.Sh. Yuldasheva

Ona tili
1-sinf
II qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.



novda
edutainment

Toshkent – 2023

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2O'zb-922
Yu 60

Yuldasheva D.Sh.
Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. II qism. / D.Sh.Yuldasheva, – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 88 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-9708-8-5

© D.Sh.Yuldasheva
© "Novda Edutainment", 2023

Shartli belgilar:



Og‘zaki bajaring



Yodda tuting



O‘ylab ko‘ring



O‘zingizni sinab ko‘ring



Uyga vazifa



Yozma bajaring

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 41
01 2024 y.

Shaxs-narsa. Shaxs va narsa nomini bildiradigan so‘zlar

Iliq so‘z – shakar,
Sovuq so‘z – zahar.

1-mashq. Rasmda tasvirlangan shaxs va narsalarning nomlarini ayting.



- Har bir so‘zga mos savol bering.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Shaxs nomini bildirgan so‘zlar Kim?, narsa nomini bildirgan so‘zlar Nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.



- Berilgan so‘zlarni Kim? va Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishiga qarab, guruhlarga ajrating.

2-mashq. O‘qing.



Bir kuni jajji Anvar,
Opasidan so‘radi:
– Opa “2”ning dumi
Qay tomonda bo‘ladi?
Koptogini qistirib,
– Shoshilyapman, – der Zilol,
– Kundalik daftarimni
Ochib, o‘zing ko‘ra qol.

Dilnoza Tillaboyeva

- Yozing. She’rdagi *Kim?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni toping va tagiga chizing.

3-mashq. Rasmlarning nomini ayting, ularga savol bering va guruhlarga ajratib yozing.



4-mashq. Matnni o‘qing.

Gullarning opasi

Mahallamizda ismi jismiga monand bir qiz bor. Uning ismi Gulsevar. U ko‘chamizda ekilgan barcha gullarni parvarishlaydi. Gullarga xuddi uka-singillariga qaragandek qaraydi. Agar biror gul so‘lib qolgudek bo‘lsa, shunday qayg‘uradiki, kasal bo‘lib qolay deydi. Hatto suv quyganda ham suvni isrof qilmaydi. Buvilarimiz uni “tejamkor qiz”, “gullarning opasi”, deb maqtashadi.

(“G‘uncha” jurnalidan)



- Matnni ko‘chiring. Kim? Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlab, tagiga bir chiziq chizing.

Donoga ergashgan dovondan oshar.

1-mashq. O‘qing va tez aytishni mashq qiling.

Tolib tog‘dan toshbaqa topdi.

- Tez aytishdagi Kim? Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlang.

Kitob



Bitta narsa-buyum nomini bildirgan so‘zlarga Nima? so‘rog‘i beriladi.

Kitoblar



Bittadan ortiq narsa-buyum nomini bildirgan so‘zlarga Nimalar? so‘rog‘i beriladi.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

-lar qo‘shimcha hisoblanadi. U ko‘plik ma’nosini bildiradi.

Masalan: qalam – qalamlar, bino – binolar, daraxt – daraxtlar…



2-mashq. Sinf xonasidagi narsa-buyumlarga so‘roq bering.



- So‘zlarni birlik va ko‘plikda juftlab yozing. Namuna: *stol – stollar…*
- Ko‘plik qo‘shimchasining tagiga chizing.

3-mashq. **She’rni ifodali o‘qing.**

Kasallikni quvamiz

Kasallikni quvamiz,
Tishimizni yuvamiz.
Tishlarning orasidan,
Mikroblarni quvamiz.

Xushbo‘y hidli sovun-la,
Qo‘limizni yuvamiz.
Barmoqlar orasidan,
Kasallikni quvamiz.

Erinmaymiz boshdan to,
Tirnoqqacha yuvamiz.
Sog‘lom hayotimizdan,
Kasallikni quvamiz.



Zulfiya Mo‘minova

- She’rdagi Nima? Nimalar? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlang va yozing.

O‘zingizni sinab ko‘ring!

“Sog‘ tanda – sog‘lom aql” maqolini tushuntiring.
Inson sog‘lom bo‘lishi uchun nimalar qilishi kerak?

4-mashq. Qiziqarli ma'lumotni o'qing.

Chumolixo'rlar, odatda, qirchumoli deb ataluvchi oqchumolilarni tutib yeydigan hayvonlardir. Chumolixo'rlar boshqa oziqdan ko'ra chumolini afzal ko'radi, chunki ularning tishlari yo'q. Ularning ancha cho'zinchoq jag' suyaklari deyarli to'liq teri bilan qoplangan bo'ladi.

Chumolixo'rning og'zi juda kichkina, tilining uzunligi o'ttiz santimetrdan ortiqroq va yopishqoq modda bilan qoplangan. Chumolixo'r qirchumolini ko'rganda uzun tilini chiqaradi. Qirchumoli tilga yopishib qoladi, shunda chumolixo'r o'z o'ljasini og'ziga tortadi va yutadi.

("Bolalar adabiyoti"dan)



- Matndagi birinchi xatboshini ko'chiring. Ma'lumotda berilgan Nima? Nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni toping va tagiga chizing.

Yaxshi bola nom keltirar,
Yomon bola g'am keltirar.

1-mashq. **So'zlarni o'qing, savol bering va ikki guruhga ajrating.**

farzand taroq quruvchi sportchi
chang'i dugona shamol qor parchasi

- So'zlarni guruhlarga qanday ajratdingiz? Shaxsga nisbatan qanday savol beriladi?

Bola



Bolalar



Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Bitta shaxs nomini bildirgan so‘zlar Kim?, bittadan ortiq shaxs nomini bildirgan so‘zlar Kimlar? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.



2-mashq. **O‘qing. Nima? Nimalar? Kim? Kimlar? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni toping.**

Osmonda yulduzlar charaqlab ko‘rindi.

Quruvchilar yangi bino qurilishini boshlashdi.

Bahorda qushlar o‘lkamizga qaytadi.

Bog‘da olma, olcha, nok, o‘rik gulladi.

Namuna: Yulduzlar – Nimalar?...

3-mashq. Rasmlarni kuzating.

1



2



3



4



- Birinchi rasmni keyingi rasmlar bilan solishtiring. Ayting-chi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi rasmlarda rassom nimalarni chizishni unutgan?
- Chizilishi unutilgan narsalar nomini yozing.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

4-mashq. Rasmni diqqat bilan kuzating.



Foydalanish uchun so‘zlar:
yoz, bog‘, bog‘bon, ko‘m-ko‘k, daraxtlar, serhosil mevalar, bolalar…

- Berilgan so‘zlardan foydalanib, rasm asosida matn tuzing. Matnga sarlavha toping.
- Tuzilgan matnni daftaringizga yozing. Shaxs va narsa nomini bildirgan so‘zlarning tagiga chizing.

Aql yoshda emas, boshda.

1-mashq. Narsa nomini bildirgan so‘zlarni namunadagidek yozing.

○ **bino**	○ **odam**	○ **rassom**
○ **qalam**	○ **kema**	○ **do‘ppi**
○ **usta**	○ **duradgor**	○ **o‘rtoq**
○ **rasm**	○ **libos**	○ **shifokor**

Namuna: bino – binolar, olma – olmalar…

2-mashq. Boshqotirmani yeching.

1 **dosh +** 

3  **+ xan**

2  **+ ari**

4  **+ munchoq**

- Hosil bo‘lgan so‘zlarni so‘rog‘i bilan birga yozing.

Eslatma!

Doshqozon – to‘y va marosimlarda taom tayyorlanadigan katta qozon.



3-mashq. Qizga ism qo‘ying. Matndagi rasmlarni so‘z bilan ifodalab, matnni ko‘chiring.

Dastyor qiz



1-sinfda o‘qiydi. U  uy ishlarida yordamlashadi.  suv quyadi,  yuvadi,  artadi,  uni “dastyorim”, deb erkalaydi.

- Rasmdagi so‘zlarga qanday savol berdingiz? Nima uchun?

4-mashq. Nuqtalar o‘rniga Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.

1. ... ko‘ylak tikadi.
2. ... o‘quvchilarga dars beradi.
3. ... mazali ovqatlar pishiradi.
4. ... bemorlarni davolaydi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG‘ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI BO‘LIMI
33-UMUMIY
O‘RTA TA’LIM
MAKTABI
№ 41
2024

Kitob – xazina,
Bilim – boylik.

1-mashq. O‘qing. Ertakni davom ettiring.

Sehrli qalam



Sherzod rasm chizishga qiziqqani uchun dadasi unga rangli qalamlar to‘plamini olib bergan edi. U qalamlardan birini yo‘nib, rasm daftariga baliq suratini chizgandi, baliqning qanoti qushnikiga o‘xshab qoldi. Unga jon kirib, qushdek uchib xonani bir-ikki aylandi-da, o‘zini tashqariga urib derazadan chiqib ketdi. Sherzod qalamning sehrli ekanini bilib qoldi. Ertasi kuni bu haqda o‘rtoqlari Kozim bilan Akmalga aytdi. Ular darsda yana qalamning sehrini sinab ko‘rishdi...

Ilhom Zoir

- Agar sizda sehrli qalam bo‘lganida nimaning rasmini chizgan bo‘lardingiz va nima uchun?

2-mashq. Rasmlarni diqqat bilan kuzating.



- Rasmlarni guruhlarga ajratib, nomlarini yozing.
- Hosil qilgan guruhingizdagi narsa-buyumlarga umumiy nom bering.

3-mashq. Ko‘chiring. Kim? Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni topib, tagiga chizing.

Kichik rassom

Jajji singlim Muyassar
Chizib qizning rasmini,
Nilufar deb pastiga,
Yozib qo‘ydi ismini.
Qo‘lda qalam, qog‘ozi,
Beto‘xtov qilar ijod.
Ulg‘aysa rassom bo‘lar,
Bor unda zo‘r iste’dod.



4-mashq. She'rni ifodali o'qing.

Shamol

Daraxtlarni silkitib,
Tegmaganga tegib xit,
Kezar shamol g'uv-g'uv.

Bandin uzgan yaproqlar —
Uchqur-chopqir toychoqlar
O'ynab yurar quv-quv.

Yum-yumaloq soqqaday,
Dum-dumaloq olmalar
Qulab tushar duv-duv.

Orif To'xtash



- She'rning ikkita bandini ko'chiring. Narsalarning nomini bildirgan so'zlarni topib, tagiga chizing.



1-mashq. Testlarni yeching.

1. Nutq nimalardan tuziladi?
A) gaplardan;
B) so‘zlardan;
D) tovushlardan;
E) harflardan.

2. Qaysi qatorda faqat narsalarning nomini bildiruvchi so‘zlar mavjud?
A) piyola, uzum, gul;
B) qaymoq, tikuvchi, ko‘l;
D) bola, xona, yo‘l;
E) choynak, aka, koptok.

3. Ushbu she’riy parchada Kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan nechta so‘z qatnashgan?
Uy yashnaydi bola bilan,
Tog‘ yashnaydi lola bilan.
A) 2 ta;
B) 1 ta;
D) 3 ta;
E) 4 ta.

4. Bittadan ortiq shaxsni bildirgan so‘zlar qanday so‘roqqa javob bo‘ladi?

A) Nimalar?
B) Kim?
D) Kimlar?
E) Nima?

5. *Kimlar kiyim tikadi?*
Kimlar? so‘rog‘i o‘rniga gap mazmuniga mos so‘zni qo‘ying.

A) fabrika;
B) tikuvchilar;
D) xolam;
E) onam.

6. Javoblar orasidan shaxs nomlari to‘g‘ri berilgan qatorni toping.

A) dugona, bo‘taloq, shaftoli;
B) bog‘, sinfdosh, hunarmand;
D) do‘st, kulol, opa;
E) chiroq, hamshira, muallim.

7. Berilgan so‘zlar orasida Kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlar nechta?



A) 5 ta;
B) 4 ta;
D) 7 ta;
E) 3 ta.



2-mashq. She’rni ifodali o‘qing.

To‘rt sehrgar

Bor edi to‘rt og‘ayni,
Yetilgan payti ayni.
Bular to‘rt so‘z – ibora,
Zo‘r ma’nodan iborat.
To‘rttovi – to‘rt sehrgar.
Birin nomi – Ko‘p rahmat,
Ikkinchisi – Marhamat.
Uchinchisi – Assalom,
Saqlar hurmat – Ehtirom.
Ochilganday dil guling,
To‘rtinchisi – Sog‘ bo‘ling.
Ko‘p rahmat
Va Marhamat
Birga ekan hamma vaqt.
Kim kimga bersa ko‘mak,
Erib ketarkan yurak.
Deyilarkan: Ko‘p rahmat!
Dil javobi: Marhamat!

Po‘lat Mo‘min

- She’rdagi to‘rtta og‘aynining ismlarini topib ko‘chiring. Ulardan qanday vaziyatlarda foydalanamiz?

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga xushmuomalalikni ifodalovchi so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.



Umar erta uyg‘ondi. Yuz-qo‘llarini yuvib, buvisi va bobosiga ... berdi. Tayyorlagan mazali nonushta uchun onasiga ... aytdi. Oila a’zolari Umarga ... ..., deyishdi. Umar ularga ..., ..., dedi.

4-mashq. Ushbu vaziyatlarda xushmuomalalikni ifodalovchi so‘zlardan mosini qo‘ying.

1. Istak, xohishni bildirish maqsadida murojaat qilganda ishlatiladigan so‘z – ...

2. Biror kishini bezovta qilmoqchi bo‘lganda birinchi ishlatiladigan so‘z – ...

3. Afv etishlarini xohlaganda ishlatiladigan so‘z – ...

4. Kishilar uchrashgan paytida bir-birlariga aytadigan dastlabki so‘zlari – ...

A) Assalomu alaykum
B) Minnatdorman
D) Uzr
E) Iltimos

Bosh harflar olamiga sayohat





Komil, Kamol
kamalakni kõrdi.

1-mashq. Sanoq she'rni o'qing.

Ovqat yedik biz birga:
Tohir, Mohir, Madina.
Ruxshona va Dilsora,
Ali, Vali, Omina.
To'ygan bo'lsang gar do'stim,
Qatordan chiqib ketgin.



- Sanoq she'rda gap o'rtasida bosh harf bilan berilgan so'zlarni ajrating. Bu so'zlar nima uchun bosh harf bilan yozilgan?
- She'rdagi qiz bola va o'g'il bolalar ismini sanang.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Kishilarga atab qo'yilgan ism va familiyalar har doim bosh harf bilan yoziladi.



2-mashq. Gaplarni yakunlang.

Mening ismim _____.
Mening familiyam _____.
Mening sharifim _____.



3-mashq. Tez aytishlarda siz qanday xatolarni ko‘rdingiz? Xatolarni to‘g‘rilab, tez aytishni ko‘chiring. Ismlardagi bosh harflar tagiga chizing.

ali, vali, g‘ani, sayfi, said qani?

tursunda to‘rtta to‘r qop,
mansurda bitta qo‘lqop.

ra’no ravshandan ranjidimi,
ravshan ra’nodan ranjidimi?



4-mashq. Ushbu bo‘g‘inlardan o‘g‘il va qiz bolalar ismlarini hosil qiling.

Ak	Ko	No	Yul	Qun	Lay	Shah
Bar	Shah	Lo	Ak	Ra’	Shah	Ko
no	duz	zod	lo	zim	duz	lo
mil	rom	mal	bar	boz	zim	no

- Hosil bo‘lgan ismlarni yozing.

Ergash Erkinga ergashdimi?
Erkin Ergashga ergashdimi?

- Bitta oila a’zolari bo‘lgan kishilarning ismi, sharifi va familiyasini o‘qing.
- Farzandlar – Aziza va Akmalning shariflarini o‘qing. Kishilarning sharifi otasining ismi bo‘yicha berilishini eslab qoling. Nima uchun ota va onaning sharifi har xil? Aziza va Akmalning bobosining ismi nima bo‘lgan?

Olimovlar oilasi



Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Qiz bolalar familiyasi -yeva, -ova bilan, o‘g‘il bolalar familiyasi -yev, -ov bilan yakunlanadi.
Masalan: Qodirova, Aliyeva, Qodirov, Aliyev.



1-mashq. So‘zlarni o‘qing.

Lola – lola	Po‘lat – po‘lat
Arslon – arslon	Yulduz – yulduz
Charos – charos	Olmos – olmos
Asal – asal	Nilufar – nilufar

- Har bir juftlikdagi so‘zlar biri-biridan nimasi bilan farq qilishini tushuntiring.
- Shunga o‘xshash yana qanday so‘zlarni bilasiz?
- Istalgan so‘z ishtirokida gap tuzing va yozing.

2-mashq. Oila a’zolaringizning familiyasi, ismi va sharifini to‘liq yozing.

Namuna:
Buvim – Nazarova Qumrinisa Xalilovna,
bobom – … … …

Bosh harf. Joylarga atab qo‘yilgan nomlarning yozilishi

Gulla, yashna, mustaqil O‘zbekiston!

1-mashq. Matnni o‘qing. Gap o‘rtasida bosh harf bilan yozilgan so‘zlarni toping.



O‘zbekiston poytaxti – Toshkent shahri. Toshkent shahri Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan. Toshkentda O‘zbekistondagi yagona teleminora joylashgan.

- Gap o‘rtasida bosh harf bilan kelgan so‘zlar nimani anglatadi?
- Matnni ko‘chiring va so‘zlardagi bosh harflar tagiga chizing.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

O‘zbekiston – mamlakat nomi.
Toshkent – shahar nomi.
Poytaxt – mamlakatning bosh shahri.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Ko‘cha, qishloq, shahar, mamlakat, qit’a, daryo, ko‘l, dengiz, okean, tog‘, cho‘l, orol nomlari har doim gap boshida, o‘rtasida va oxirida bosh harf bilan yoziladi.



Okean – qit’alarni bir-biridan ajratib turuvchi Yer yuzasining ulkan suvli qismi.

Dengiz – quruqlik ichkarisiga kirib boruvchi okeanning bir qismi.

Qit’a – okean bilan o‘ralgan quruqlikning katta qismi.

Daryo – o‘z o‘zani bo‘yicha oquvchi tabiiy suv oqimi.

Ko‘l – quruqlikning tabiiy chuqurliklarida yuzaga keluvchi yopiq suv havzasi.

2-mashq. O‘qing. Matndagi joy nomlarini toping.

Bilasizmi?

- Yer yuzidagi eng chuqur ko‘l – Baykal ko‘li. U Rossiya davlati hududida joylashgan.
- Yer yuzasidagi eng uzun daryo – Nil daryosi. U Misr davlati hududidan oqib o‘tadi.
- Yer yuzidagi eng katta cho‘l – Sahroyi Kabir cho‘li. U Arabiston yarimorolida joylashgan.
- Yer yuzidagi eng baland cho‘qqi – Everest cho‘qqisi. U Nepal va Xitoy davlatlari chegarasida joylashgan.







- Matndagi joy nomlarini ko‘chiring.



3-mashq. O‘qing. Matndagi joy nomlarini toping.

Xumson qishlog‘i

Xumson qishlog‘i Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanining tog‘li hududida joylashgan. Qishloq yaqinidan Ugom daryosi oqib o‘tadi. Chirchiq daryosining boshlanish joyida Chorvoq suv ombori qurilgan. Suv ombori, ayniqsa, yoz oylari odamlar bilan juda gavjum bo‘ladi. Ushbu tumanda yana Nanay, Sijjak va boshqa go‘zal qishloqlar ham joylashgan.



4-mashq. Namunada berilgani kabi o‘z yashash manzilingizni yozing.

Namuna:

Men, Rahimov Dilshodbek Alisher o‘g‘li O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Nishab ariq mahallasi, 9-tor Dadil ko‘chasi, 14-uyda yashayman.

Bosh harf. Joy nomlarini bildiradigan so‘zlar

Jap desang, qop-qop,
Ish desang, Samarqanddan top.



1-mashq. Joy nomlarini davom ettiring.

Shaharlar: Shahrisabz, ..., ...
Daryolar: Amudaryo, ..., ...
Ko‘chalar: Istiqlol, ..., ...



Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Joy nomlari buyuk kishilar ism va shariflari bilan ham nomlanishi mumkin.



Abu Rayhon Beruniy	Alisher Navoiy	Mirzo Ulug‘bek
astronom, matematik, mutafakkir olim Beruniy shahri, Beruniy metro bekati.	o‘zbek adabiy tilining asoschisi, shoir, davlat arbobi Navoiy viloyati, ko‘chasi, teatri, Alisher Navoiy metro bekati, Alisher Navoiy kutubxonasi.	podshoh, shoir, astronom olim Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Mirzo Ulug‘bek metro bekati.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

O‘zbekiston beshta davlat bilan chegaradosh: Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg‘oniston.

2-mashq. Matnni o‘qing.

Men yozni buvimnikida – To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida o‘tkazdim. Har kuni Kosonsoy daryosida cho‘mildim. Amakim Chortoq qishlog‘ida yashaydi. Biz qishki ta’tilni Farg‘ona viloyatining Rishton tumanida o‘tkazdik. U yerdan So‘x daryosi va Jonobod kanali oqib o‘tadi.

- Nima uchun ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar bosh harf bilan yozilgan?

3-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga joy nomlaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Akmal Toshkent shahri ... tumanida yashaydi. ... shahridagi avtomobil zavodida Lasetti, Malibu, Spark avtomashinalari ishlab chiqariladi. Toshkent viloyatida ... suv ombori bor. Toshkent shahrida joylashgan mamlakatimizning bosh maydoni ... maydoni deb ataladi.

Mustaqillik **Asaka** **Chorvoq** **Chilonzor**

Bosh harf. Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar

Harakating erta bolsa,
Kuzda erta orasan.



Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Laqab – bu jonivorlarga beriladigan nom. Jonivorlarning laqab (atab qo‘yilgan nom)lari kishilar ismi kabi bosh harf bilan yoziladi.

1-mashq. Matnni o‘qing.

Do‘stlar

Zilolaning Momiqvoy degan mushugi va Chopqir degan iti bor. Ular do‘st. Ular birga o‘ynashni yaxshi ko‘rishadi.

Zilola ertalab maktabga ketadi. Do‘stlar Zilola yo‘qligida zerikishadi. Zilola maktabdan kelganida Momiqvoy va Chopqir quvonganidan sakraydi.

- Savollarga yozma javob bering.

1. Zilola qaysi uy hayvonlarini boqadi?
2. Uy hayvonlarining laqabi nima?
3. Uy hayvonlari nima qilishni yaxshi ko‘radi?

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi. Hayvon nomi kichik harf bilan yoziladi.
Masalan:
hayvon nomi – mushuk,
laqabi – Malla.



Bosh harf.
Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar

2-mashq. Jonivorlarga atab nom qo‘ying va yozing.



3-mashq. **She’rni ifodali o‘qing.**

Quyoshni qarshilash

Paydo bo‘lgan choq quyosh,
Jilmayib ko‘z qisdi Mosh.
Qichqirdi so‘ng yosh Baboq:
– Omonmisan,
Hey, o‘rtoq!
It uvullar ayvondan: –
Salom hamma hayvondan!

Anvar Obidjon



- She’rda nechta hayvon ishtirok etgan? Mosh va Baboq qaysi hayvonlarning nomi? She’rda qaysi hayvonga atab nom qo‘yilmagan?
  Siz unga nom qo‘ying.

Bosh harf. Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar

Ot – yigitning yõldoshi.

1-mashq. O‘qing. Bosh harflarga e’tibor bering.

Yakshanba kuni oilamiz bilan sirkka bordik. Qiziqchilar va sirk ustalari hayvonlar bilan namoyishga chiqdilar.

Qiziqchi sahnaga iti Bim, mushugi Malla va toychog‘i Qashqa bilan chiqdi. Hayvonlar ishtirokida ajoyib sirk tomoshasini ko‘rsatdi. Ularni tomoshabinlar olqishladilar. Sirkdan quvnoq kayfiyatda qaytdik.





2-mashq. Nuqtalar o‘rniga hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlardan mosini yozing.

Qirda ... laqabli ot kishnadi.

Lolaning mushugi ... sekin miyovladi.

Qo‘shnimizning iti ... qattiq vovulladi.

Foydalanish uchun so‘zlar:
Polvon, Momiq, Boychibor.



3-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga gap ma’nosiga mos so‘zlarni qo‘ying.

1. Sinfimiz o‘quvchilari ... .
2. Sobir itiga ... deb nom qo‘ydi.
3. Bu yil tomorqaga ... ekdik.
4. Mushugim ... sutni yaxshi ko‘radi.

Mosh ziyrak mosh Ziyrak

Bosh harf. Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar

3-mashq. She’rni ifodali o‘qing.

Bor ekan-da yo‘q ekan,
Chol-kampir bo‘lgan ekan.
Katta hovlilarida,
Jonivorlar yashar ekan.
Ko‘k ko‘z mushuklarini
Nomlashgandi Olapar.
Bo‘ribosar itlarin
Atashgan Momiq ukpar.
Toychog‘in nomi – Targ‘il,
Sigirning nomi – Uchqur.
Chol-kampirga nomlarni
To‘g‘rilashda yordam qil.

- She’rdagi chalkashlikni aniqlang. Hayvonlarning nomi va ularga atab qo‘yilgan nomlarni to‘g‘rilab ko‘chiring.


Targ'il?
Uchqur?
Momiq?
Olapar?



1-mashq. Testlarni yeching.

1. Joy nomlari qanday harf bilan yoziladi?
A) kichik harf bilan;
B) bosh harf bilan;
D) gap boshida bosh harf bilan;
E) gap oxirida bosh harf bilan.

2. Joy nomlari to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
A) Namangan, Bahrom, Ziyrak, Chirchiq;
B) Toshkent, Gulasal, Momiq, Bekobod;
D) Buxoro, Andijon, Xiva, Qo‘qon;
E) Shahnoza, Shahrisabz, Jamila, Boychibor.

3. *Singlim lola tog‘dan lola terdi.* Gapdagi qaysi so‘z bosh harf bilan yozilishi kerak?
A) 2-so‘z; D) 5-so‘z;
B) 4-so‘z; E) 3-so‘z.

4. Ushbu so‘zlardan qaysi biri ortiqcha?
Alimov, Rahimov, Sattorova, Mahmudov, Saidov.
A) 2-so‘z;
B) 4-so‘z;
D) 5-so‘z;
E) 3-so‘z.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Olmazor – Toshkent shahridagi tuman nomi.
Konibodom – Farg‘ona vodiysidagi temir yo‘l stansiyasi nomi.
Bo‘rijar – Toshkent shahridagi kanal nomi.
Yakkatut – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi mahalla nomi.
Kattabog‘ – Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumanidagi qishloq nomi.



2-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying va ko‘chiring.

1. Dugonam … bilan sinf xonasidagi gullarni parvarishlaymiz.
2. Ikki do‘st … va … yozgi ta’tilda … shahriga sayohat qilishdi.
3. Partadoshimning ismi ... , familiyasi … .
4. Akamning oti … poygada g‘olib bo‘ldi.

- *Foydalanish uchun so‘zlar: Malika, Doston, Buxoro, Akmal, Nodira, Olimova, Uchqur.*

3-mashq. She'rni ifodali o'qing va ko'chiring.

Keldi Ayub,
Keldi Nor,
Keldi Erkin, Gulbahor,
Keldi Otabek, Ramiz,
Gavjum bo'ldi hovlimiz.

- She'rda nechta bola keldi? Ulardan nechtasi o'g'il bola, nechtasi qiz bola?
- She'r va rasmda qanday farq sezdingiz? Ismlarning tagiga chizing.



4-mashq. She’rni e’tibor bilan o‘qing.

Telefonda – itlar

Olapar
Qilib “Ir-ir”,
Gap so‘radi
Qandaydir.

To‘rtko‘zxon
Shoshib darrov,
Javob berdi, –
Vov-vov-vov!

Anvar Obidjon





- She’rda nechta itga atab qo‘yilgan nom keltirilgan? Ko‘chiring va itlarning nomlari tagiga chizing.

5-mashq. Xatolarni to‘g‘rilab ko‘chiring.

1. osmonni yulduzlar yoritib turibdi.
2. yulduz olmos topdi.
3. olmos rayhon olib keldi.
4. rayhon va asal – qalin dugona.
5. asal – ming dardga davo.
6. arslon arslonlarni yaxshi ko‘radi.

Shaxs-narsa harakati va belgisi



Shaxs-narsa harakati. Shaxs va narsa harakatini bildirgan so‘zlar



Harakating – soǧliǧing,
Mehnating – boyliging.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar **Nima qildi? Nima qiladi? Nima qilyapti?** so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Masalan: hayvon nomi – mushuk, laqabi – Malla.



1-mashq. Rasmlarda bolalar nima qilishyapti?





- Suzyapti, uchyapti so‘zlari nimani anglatadi (narsanimi yoki narsaning harakatini)?
- Rasmlar asosida gap tuzing va yozing.
- Harakatni bildirgan so‘zlarning tagiga ikki chiziq chizing.

2-mashq. She’rni ifodali o‘qing.

Savol berdi muallim,
Tulki gangib yo‘taldi.
Sichqon qochdi teshikka...
Chumoli qo‘l ko‘tardi.
Chumolining, he, attang,
Yana ishi yurmadi.
O‘qituvchi Fil uni,
Bu safar ham ko‘rmadi.

Anvar Obidjon



3-mashq. Nuqtalar o‘rniga gap ma’nosiga mos so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Nafisa dugonalari bilan arqon ... .
2. Kuz faslida daraxt barglari ... .
3. Abbos qiziqarli ertak kitobini ... .
4. Sozanda rubobni mahorat bilan ... .
5. Opam mazali ovqat ... .
6. Dehqonlar sabzavotlarni ... .

Foydalanish uchun so‘zlar: sakradi, terishdi, to‘kiladi, chaldi, o‘qiyapti, pishirdi.

Eling senga chōzsa qōl,
Unga doim sodiq bōl.

1-mashq. Rasmdagi Azizaning harakatlarini ayting. Harakatni bildirgan so‘zlarga savol bering.





Kuzating va o‘ylab ko‘ring.

- Shaxs va narsalarning harakatini anglatuvchi so‘zlar asosida shaxs va narsaning o‘zini aniqlab olish mumkinmi?

- *Chirilladi, vizillaydi, gumburladi, chirqilladi* so‘zlari orqali shaxs yoki narsa nomini aniqlay olasizmi?

2-mashq. **So‘zlarni o‘qing. Ushbu harakatlarni kim yoki nima bajara oladi?**



pichirlaydi, qichqiradi, gapiradi

kuladi, jilmayadi, xaxolaydi

quydi, tomchiladi, yog‘di

- So‘zlarning harakatini kuchayib borish tartibida yozing. Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

3-mashq. **Berilgan rasm asosida matn tuzing.**



- Tuzgan matningizga sarlavha qo‘ying va yozing. Harakatni bildirgan so‘zlarning tagiga chizing.

Bir qõllab eksang,
Ikki qõllab õrasan.

1-mashq. **She'rni e'tibor bilan o'qing.**

o'kiradi **suzadi**
g'uvillaydi
irillaydi **chirqillaydi**
gapiradi
uchadi **sakraydi**



- Faqat chumchuqning harakatlarini anglatuvchi so'zlarni toping.
- Ular ishtirokida ikkita gap tuzing.

2-mashq. **Rasmlarni nomlang. So'zlardan mosini tanlab, gaplarni o'qing.**



vovullaydi



esa

suzadi
uchadi



miyovlaydi



esa

yuguradi
sudraladi

- Siz tanlagan so'zlar qaysi so'roqqa javob bo'ladi?

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

3-mashq. Rasmlarni kuzating.



- Rasmda berilganlarning nomini so‘z bilan yozing va yoniga ularning harakatini ifodalovchi so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

ma’raydi, o‘kiradi, sayraydi, qichqiradi, vovullaydi

4-mashq. Rasmlarni kuzating. Har bir kasb egasi nimani bajarishini yozing.



Shaxs-narsa belgisi. Shaxs-narsa belgisini bildirgan so‘zlar

Bola – aziz,
Odobi undan aziz.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

So‘zlar orqali shaxs va narsalarning belgilarini nomlash mumkin.
Ularning belgilari turli xil bo‘ladi.
Masalan: uzun, qisqa, baland, past, issiq, sovuq, qattiq, katta...



1-mashq. Rasmlarni kuzating. Narsalar va ularning belgilarini ayting.









- Narsalarni o‘ziga mos belgining nomi bilan birga yozing.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so‘zlar *Qanday? Qanaqa?* so‘roqlariga javob bo‘ladi.
Masalan: shirin gilos, baland bino, uzun yo‘l, xushbo‘y gul.



2-mashq. Berilgan rasm asosida matn tuzing.



**To‘ni silliq, tuki yo‘q,
Ichi qizil, ko‘ki yo‘q.**

**Qorday oppoq,
Parday yumshoq.**

- Qaysi so‘zlar sizga topishmoqni to‘g‘ri topishga yordam berdi?
- Ular nimani anglatadi?
- Topishmoqni ko‘chiring. Narsalarning belgisini anglatuvchi so‘zlarning tagiga chizing.

Shaxs-narsa belgisi. Shaxs-narsa belgisini bildirgan so‘zlar

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Narsalarning belgisi so‘zlar yordamida ifodalanadi.

Narsalarning belgisini bildirgan so‘zlar orasida qarama-qarshi ma’noli so‘zlar ham bor.

Masalan: shirin-achchiq, uzun-qisqa, oq-qora, kun-tun…



3-mashq. So‘zlarni o‘qing. Ular nimani anglatadi – narsaning harakatinimi yoki belgisini?



qisqa

yo‘g‘on

uzun

xira

tiniq

- Qaysi so‘zlar narsalarning qarama-qarshi belgilarini anglatadi?
- Shunday so‘zlar ishtirokida 2 ta gap tuzing.

4-mashq. Rasmga qarab, matn tuzing va yozing.

- Tuzgan gaplaringizda narsalarning belgisini anglatuvchi so‘zlardan foydalaning.
- Belgini bildirgan so‘zlar tagiga to‘lqinli chiziq chizing.



Shaxs-narsa belgisi. Qanday? Qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlar

Bekorchidan el bezor,
Sozidan kongil ozor.

1-mashq. So‘zlarni o‘qing. Ular nimani anglatadi?

chopqir qo‘rqoq kulrang malla
momiq kuchli ayyor

- Qaysi so‘zlar quyon, tulki, otga xos belgilarni anglatadi? Ularga xos bo‘lgan belgilarni davom ettiring.



Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Narsalarning belgilarini anglatuvchi so‘zlar yordamida ularning o‘zini tanish, bilib olish mumkin.



2-mashq. **Rasmga diqqat bilan qarang.**



- Rasmlarga xos belgilarni to‘g‘ri bog‘lab yozing.

tiniq | maymoq | yam-yashil | ignabargli

kulrang | moviy | qo‘ng‘ir | ozg‘in

3-mashq. So‘zlarni o‘qing. Narsalarning belgisini anglatuvchi so‘zlarni ko‘chiring.

mushuk

Mosh

qattiq

o‘qish

mayin

parta

archazor

stol



4-mashq. **She’rni ifodali o‘qing. Ko‘chiring.**

Erta bahor

Ko‘k, moviy...
Unda-bunda
Bulutlar asta yozar
Kumush qanotlarini.
Iliq, yoqimli kunda,
Erkin o‘ynaydi qushlar
Chizib sirli xatlarni.
Ariq yoqalaridan
Yashil ko‘zli boychechak
Jimgina mo‘ralaydi.
Go‘zal bog‘chamda har yon
Ko‘klamning mayin, ipak
Nafasi taraladi...

Anvar Obidjon

- Belgini bildirgan so‘zlarni topib, tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

Kitob kõrmagan kalla – giyoh unmagan dala.

1-mashq. **She'rni o'qing.**

Kamtarin

Xunuk Laycha bor edi,
Kaltatumshuq – puchuqcha.
Akillardi unga ko'p,
Chiroyli Oq kuchukcha.

Jim o'tardi Laychavoy
Xafa bo'lmay kichikdan.
Esli edi u ancha
Chiroyli Oq kuchukdan.

Anvar Obidjon

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Shaxs va narsa belgisini bildirgan so'zlar shaxs va narsaning rang-tusini, ta'm-mazasini, hajm va xil-xususiyatini ifodalaydi.



2-mashq. Savollar tuzing va o'qing.



- Insonlarga xos xususiyatlardan birini qo'yib yozing.

3-mashq. Rasmlarni kuzating. Ertaklar nomini eslang.



- Ertak qahramonlariga xos umumiy belgilarni toping va yozing.
- Siz yana qaysi ertak qahramonlarini bilasiz? Shu qahramonga xos belgilarni ayting.

Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar

1-mashq. So‘zlarni o‘qing. Narsalarning harakatini anglatuvchi so‘zlarni ko‘chiring.

qaynamoq kuylamoq yugurmoq

qozon oyna baland suv

so‘zlamoq taqillatmoq yurmoq

- Harakatni bildirgan so‘zlarni qatnashtirib 2 ta gap tuzing.

2-mashq. Ertakni o‘qing. Ushbu parcha qaysi ertakdan olingan?

Tarvuz pishishi bilan boy hamma qarindosh-urug‘ini mehmonga chaqiribdi. Tarvuzga pichoq urgan zamon ichidan katta-katta qovog‘arilar chiqib, o‘tirganlarni talay boshlabdi. Boy tura solib ularni haydamoqchi bo‘lganda, arilar uni boshi demay, yuzi demay, chaqib tashlayveribdi. Oradan sal o‘tgach, boyning yuzlari, burni, lablari shishib ketibdi.



- Ertak qahramonlariga xos umumiy belgilarni toping va yozing.
- Siz yana qaysi ertak qahramonlarini bilasiz? Shu qahramonga xos belgilarni ayting.



3-mashq. O‘qing. Bu so‘zlar qaysi narsalarning belgilarini anglatishi mumkin?

○ yashil...	○ mehribon...	○ kichkina...
○ havorang...	○ muloyim...	○ shirin...
○ quvnoq...	○ qo‘rqoq...	○ baland...

- Har bir so‘zga mos shaxs-narsa nomini tanlang va yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: osmon, bola, barg, ona, qiz, olma, bino, quyon, kuchukcha.



4-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Ko‘chiring.

Muzxonada muzlagan
muzdekkina muzqaymoq.

Qora, qizil qalamni
qalamdonga qamadim.

- Ko‘chiring. Shaxs va narsa belgilarini ifodalovchi so‘zlarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

Shaxs-narsa sanog‘i, miqdori va tartibi




4
5

Yaxshi dōst yuz qarindoshdan yaxshi.

Sinfimizda o‘ttiz nafar o‘quvchi bor.

Biz birinchi sinfda o‘qiymiz.



- Berilgan gaplarda sanoqni bildirgan so‘zlar qaysi?
  O‘ttiz, birinchi so‘zlariga savol bering.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Shaxs va narsalarning sanog‘ini bildirgan so‘zlar Necha?, miqdorini bildirgan so‘zlar Nechta?, Qancha? tartibini bildirgan so‘zlar Nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. *Masalan: besh (Necha?) baho, sakkizta (Nechta?) kitob, oltinchi (Nechanchi?) qavat.*



Sanoqni bildiruvchi so‘zlar **Necha?**	Miqdorni bildiruvchi so‘zlar **Nechta? Qancha?**	Tartibni bildiruvchi so‘zlar **Nechanchi?**
o‘n, yetti, ikki	o‘nta, yettita, ikkita	o‘ninchi, yettinchi, ikkinchi

1-mashq. Topishmoqni o‘qing.



Besh og‘ayni yosh edi,
Ichida bir bosh edi.

- Topishmoqni daftaringizga ko‘chiring.
- Topishmoq javobini toping.
- Sanoqni bildirgan so‘zlar tagiga chizing.



2-mashq. **She’rni o‘qing.**

1 Bir deganda birinchi
O‘rnimizdan turamiz.

2 Ikkida egilamiz,
So‘ng esa rostlanamiz.

3 Uch deganda uch marta,
Chuqur nafas olamiz.

4 To‘rtinchida hammamiz
Yonga qo‘lni cho‘zamiz.

5 Besh deganda besh marta,
Qattiq qarsak chalamiz.

6 Olti desak kursiga,
Jim o‘tirib olamiz.

- She’rda sanoq va tartibni bildiruvchi nechta so‘z borligini toping.
- Namunaga qarab, sanoqni bildiruvchi so‘zlarni tartibni bildiruvchi so‘zlarga, tartibni bildiruvchi so‘zlarni sanoqni bildiruvchi so‘zlarga aylantiring.
  Namuna: bir – birinchi, ... – ...,

3-mashq. Matnni o‘qing.

Sirli “yetti” raqami

Yetti raqami o‘ziga xos raqam. Unda qandaydir sehr bor. Nutqimizda yetti raqami bilan bog‘liq turli hodisa, ibora, hikmatli so‘z va maqollar mavjud. Masalan, yetti hafta kuni, yetti sayyora, dunyoning yetti mo‘jizasi, yettinchi osmon.



- Ko‘chiring. Matndagi sanoqni ifodalovchi so‘zlarning tagiga chizing.
- Sonlar ishtirok etgan maqollardan ayting.

4-mashq. She’rni ifodali o‘qing.

Taqsimlash

Mana, olti bog‘ xashak,
Bir bog‘ini yer eshak.
Ikki bog‘in qo‘yga ber,
Uch bog‘ini quyon yer.

Anvar Obidjon

- She’rda nechta hayvon ishtirok etgan?
- Har bir hayvonga necha bog‘dan xashak berildi?

Sanoq, miqdori. Shaxs-narsa miqdorini bildiradigan so‘zlar

Bilagi zõr birni yiqar,
Bilimi zõr – mingni.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Sanoqni bildirgan so‘zlarga -ta qo‘shimchasini qo‘shish orqali narsa miqdorini bildirgan so‘zlar hosil qilinadi.

Masalan:

to‘rt – to‘rtta, o‘n – o‘nta…



O‘nta nok



Uchta olma



1-mashq. Gaplarni o‘qing.

1. Uch bilan ikkining yig‘indisi beshga teng.
2. O‘zbekistonlik sportchi marraga birinchi bo‘lib yetib keldi.
3. Akam o‘n uchta kabutar sotib oldilar.
4. Singlim o‘n ikkinchi sentabrda tug‘ilgan.

- Sanoq va tartib sonlarni bildiruvchi so‘zlarga savol bering.
- Ko‘chiring. Sanoq va tartibni bildirgan so‘zlarni so‘rog‘i bilan birga yozing.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Shaxslarning sanog‘iga nisbatan -ta qo‘shimchasi qo‘llanilmaydi. Shaxsga nisbatan nafar so‘zi ishlatiladi.

Masalan: besh nafar bola, o‘ttiz nafar o‘quvchi, o‘n nafar ishchi…



✗ **Sakkizta bola**

✓ **Sakkiz nafar bola**





2-mashq. Gaplarni o‘qing.

1. **Kuzda Dilshod sakkiz yoshga to‘ldi.**
2. **Dilshod uchun sakkinchi kuz keldi.**
3. **Menda uchta olma bor.**
4. **Men oilada uchinchi farzandman.**

- Ko‘chiring. Sanoqni bildiruvchi so‘z tagiga qizil, tartibni bildiruvchi so‘z tagiga yashil rang bilan chizing.
- “Sakkiz”, “sakkizinchi”, “uchta”, “uchinchi” so‘zlari qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi? Bu so‘zlar nimani bildiradi? Gapdagi vazifasi qanday?
- Nechta? va Nechanchi? so‘roqlari o‘rtasida qanday farq bor?



3-mashq. Matnni o‘qing.

Nasiba 1-sinfda o‘qiydi. Sinfda o‘ttiz nafar o‘quvchi bor. Shulardan 12 nafari qiz bola, 18 nafari o‘g‘il bola. Ushbu sinf o‘quvchilari yaxshi va a’lo baholarga o‘qishadi.

- Matnni ko‘chiring. Siz o‘qiydigan sinf o‘quvchilari haqida gapirib bering.

4-mashq. Tez aytishni o‘qing.

Qish sabog‘i

Shimimda to‘rtta cho‘ntak,
Paltomda to‘rtta cho‘ntak.
Birma-bir kirib chiqar,
Bariga ikki qo‘lim.

“Kuh-kuh”lab qo‘llarimga,
Oyimlar koyir andak,
– Shunaqa chatoq bo‘lar
Qo‘lqop yo‘qotish,
O‘g‘lim!

Abdurahmon Akbar



- Ko‘chiring. Sanoqni bildirgan so‘zlarni so‘rog‘i bilan birga yozing.

Shaxs-narsa tartibi. Shaxs-narsa tartibini bildiradigan so‘zlar

Bir bolaga yetti qōshni ota-ona.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Shaxs va narsaning tartibini bildirgan so‘zlar sanoq so‘zlarga -inchi, -nchi qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi.

Masalan: beshinchi qator, uchinchi sinf…



Beshinchi raqam



1-mashq. Matnni o‘qing.

1. Necha yoshdasiz?
2. Nechanchi sinfda o‘qiysiz?
3. Sizning sinfxonangizda nechta parta bor?
4. Siz nechanchi qatorning nechanchi partasida o‘tirasiz?

- Savollarga javob yozing. Javobdagi sanoq va tartibni bildirgan so‘zlar tagiga chizing.

2-mashq. Matnni o‘qing.



Archa – doimo yashil holda o‘suvchi daraxt. Uning 70 ga yaqin turi bor. Archa mart-may oylarida gullaydi. Mevasi qo‘ng‘ir tusli bo‘ladi. Ikkinchi yili pishib, qish yoki bahorda to‘kiladi. Archaning 2-3 yoshli ko‘chati ekiladi. Uning yog‘ochi me’morlikda va o‘ymakorlikda ishlatiladi. Uning ba’zi turlaridan xushmanzara o‘simlik sifatida foydalaniladi.

- Ko‘chiring. Matndagi belgini bildirgan so‘zlarni aniqlang va tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

3-mashq. Savollarga javob yozing.

1. Oila a’zolaringiz necha kishidan iborat?
2. Ular kimlar va yoshi nechada?
3. Sinfingizda nechta o‘quvchi o‘qiydi?
4. O‘quvchilarning necha nafari o‘g‘il bola, necha nafari qiz bola?

- Narsalarning sanog‘i, miqdori va tartibini bildirgan so‘zlarga savol bering.



1-mashq. **Topishmoqlar javobini toping.**

Bir o‘zi,
ming ko‘zi.

O‘zi bitta,
qulog‘i to‘rtta.

Ikki yoritgich o‘rtasida
faqat bitta men yolg‘iz.



2-mashq. **Partadoshingiz bilan suhbatlashing.**

1. **Necha yoshdasiz?**
2. **Oilada nechanchi farzandsiz?**
3. **Nechanchi raqamdagi uyda yashaysiz?**
4. **Uyingizda nechta kitob bor?**

- Sinfdoshingizning javoblarini eslab qoling.



3-mashq. **O‘qing. Har bir so‘zga savol bering.**

- O‘qituvchi, daftar, musiqachi, haydovchi.
- Mushuk, it, tarvuz, toychoq.
- Sholg‘om, lavlagi, handalak, sabzi.

- Har bir qatordan ortiqcha so‘zni toping. Ortiqcha so‘zni tushirib qoldirib, so‘zlarni ko‘chiring.

4-mashq. **So‘zlarni o‘qing. Narsalar belgisini anglatuvchi so‘zlarni ko‘chiring.**

mehribon | qudratli | quvnoq
kalta | kitob | pokiza | katta
o‘ynadi | favvora | qizil

5-mashq. **O‘qing. Kim? va Nima? so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarni toping.**

Stol, chigirtka, divan, qarg‘a, o‘quvchi, quyon, ayiq, kreslo, zag‘izg‘on, qaldirg‘och, ninachi, qo‘ng‘iz, stakan, shifokor, tulki, fil, rassom.

- Berilgan guruhlarga mos so‘zlarni topib yozing.

odamlar | uy jihozlari | hasharotlar | hayvonlar

6-mashq. **Yozgi ta’tilni siz qanday o‘tkazmoqchisiz? Shu haqida matn tuzing.**





7-mashq. She'rni ifodali o'qing. She'rdagi oilaning necha nafar farzandi bor?

O'zbek oilasi

Alijonning to'nchasin
Valijonga beramiz.
Qodirjonning qalpog'in
Nodirjonga beramiz.
Karomatning ko'ylagin
Komila kiyar endi.
Tursunboyning tuflisi
Turg'unga kelar to'g'ri.
Ana shunday!
Kiyimlar
Ortmaydi o'zimizdan,
Bu oila tejamkor, deb
Do'kondor xafa bizdan.

Sodiqjon Inoyatov



- Ko'chiring. She'rda kim kimga kiyimini berishini namunadagidek yozing.
  Namuna: Alijon – Valijonga, ...

MUNDARIJA

Shaxs-narsa. Shaxs va narsa nomini bildiradigan so‘zlar..... 4
Narsa. Nima? Nimalar?..... 8
Shaxs. Kim? Kimlar?..... 12
Shaxs-narsa. Shaxs va narsa nomini bildiradigan so‘zlarni aniqlash..... 16
Shaxs-narsa. Kim? Kimlar? Nima? Nimalar?..... 18
Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar..... 22

Bosh harf. Kishilar ism va familiyasining bosh harf bilan yozilishi..... 26
Bosh harf. Ismni bildiradigan so‘zlarni aniqlash..... 30
Bosh harf. Joylarga atab qo‘yilgan nomlarning yozilishi..... 32
Bosh harf. Joy nomlarini bildiradigan so‘zlar..... 36
Bosh harf. Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar..... 38
Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar..... 46

Shaxs-narsa harakati. Shaxs va narsa harakatini bildirgan so‘zlar..... 50
Shaxs-narsa harakati. Shaxs va narsa harakatini bildirgan so‘zlarni aniqlash..... 54

Shaxs-narsa harakati. Nima qildi? Nima qiladi? Nima qilyapti?.....56

Shaxs-narsa belgisi. Shaxs-narsa belgisini bildirgan so‘zlar.....58

Shaxs-narsa belgisi. Qanday? Qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlar..... 62

Shaxs-narsa belgisi. Rang, ta’m, hajm va xil-xususiyatni ifodalovchi so‘zlar..... 66

Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....68

Sanoq, miqdor va tartib. Shaxs-narsa sanog‘i, miqdori va tartibini bildiradigan so‘zlar.....70

Sanoq, miqdori. Shaxs-narsa miqdorini bildiradigan so‘zlar.....76

Shaxs-narsa tartibi. Shaxs-narsa tartibini bildiradigan so‘zlar.....80

Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....82

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining F. I. Sh	O‘quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha sahifalar mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiqlari yo‘q.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

Yuldasheva Dilbar Shuxratovna

Ona tili

1-sinf

II qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”
Toshkent – 2023

Muharrir	*M. Nishonboyeva*
Badiiy muharrir	*A. Sobitov*
Musahhih	*X. Serobov*
Rassomlar:	*V. Vetokhina, S. Sharapova*
Kompyuterda sahifalovchi	*S. To‘ychiyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 10.09.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 16 n/shponli. “Arial” garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo‘rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m2 qog‘oz. Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 1,8. Adadi 626 981 nusxa. Buyurtma raqami 23-569. “O‘zbekiston” NMIUda chop etildi.